

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**AXBOROT XATI**

Sizga shuni ma‘lum qilamizki, **2022 yil 18-19 may** kunlari Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida **“Fan, ta‘lim, ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish innovatsion texnologiyalari dolzarb muammolari va ularning yechimi”** mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o‘tkaziladi. Ushbu anjumanga ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borayotgan barcha professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va izlanuvchilar taklif etiladi.

**Ilmiy dastur**

Mazkur respublika konferensiyasi istiqbolli yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarining hozirgi holatini ko‘rib chiqishga imkon beradi va quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha yalpi va sho‘ba majlislari o‘tkazilishi rejalashtirilgan:

- ✚ **Klaster tizimida paxta sanoati, mexanika, to‘qimachilik xomashyolarini qayta ishlashning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlari.**
- ✚ **To‘qimachilik iplari va matolarini ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish hamda sifat samaradorligiga erishish istiqbollari (Akademik M.A.Xodjinovanning 110 yilligiga bag‘ishlangan).**
- ✚ **Yengil, kimyo va matbaa sanoati ishlab chiqarishidagi innovatsion texnologiyalar (Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrasining 70 yilligiga bag‘ishlangan).**
- ✚ **Sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda Dual ta‘limning hamda fundamental, ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogika fanlarini o‘qitishning o‘rni**

Anjuman ishchi tillari: o‘zbek, rus va ingliz. Yozilgan ishlar yuqoridagi sho‘balardan biriga mos kelishi lozim va ularda keltirilgan g‘oyalar, dalillar va raqamlarga mualliflar javobgardir.

Anjuman materiallari to‘plam shaklida chop etiladi. To‘plam qisman qatnashchilarning badal mablag‘lari hisobidan nashr etilishi munosabati bilan mualliflardan har bir maqola uchun 50 000 (ellik ming) so‘m miqdorida tashkiliy badal so‘raladi.

**Rasmiylashtirish talablari**

Materiallarda ishning mazmun mohiyati aniq, tushunarli bayon etilishi lozim. Maqolalar 1 nusxada va elektron variantda mualliflar tomonidan taqdim etiladi.

Matnlar hajmi to‘liq, kamida 2 yoki 3 bet, A4 formatli (210x297 mm) oq qog‘ozda (rahbar yoki hammuallif professor-o‘qituvchi imzosi bilan), 14 o‘lchamli shriftda, 1,0 interval bilan Microsoft Word 2010 va undan yuqori versiyadagi dasturida, Times New Roman shriftida hamma tomondan 25 mm hoshiya va xat boshi (abzas)ga 1,25 sm joy qoldirib tayyorlanadi.

1. Birinchi qatorida **BOSH VA QALIN HARFLARDA MAVZUNING NOMI** sahifaning o‘rtasida, 2-qator bo‘sh qoldiriladi, 3-qatorida o‘ng tomonda muallifning ilmiy unvoni, ismi –

sharifining faqat bosh harflari va familiyasi; 4-qatorda o'ng tomonda ish joyi (tashkilot nomi) ko'rsatiladi.

2. 1,0 interval tashlab o'zbek, rus va ingliz tillarida qisqa annotatsiya (kursiv holatda, har bir tilda yozilgan annotatsiya hajmi 4 qatorgacha) beriladi. Keyin 1,0 interval tashlab maqolaning asosiy matni keltiriladi.

3. Mualliflar soni 3 tadan ko'p bo'lishi, matnda avtomatik raqamlash va boshqa avtomatik tarzda bajariluvchi buyruqlardan hamda avtomatik havola (ssilka) dan foydalanish mumkin emas. Havolalar foydalanilgan adabiyot raqamini ko'rsatgan holda quyidagi ko'rinishda berilsin: .....keltirilgan [2]. **Foydalanilgan adabiyotlarda Web of Science, Scopus va ScienceDirect xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidan foydalanilgan bo'lishi shart.**

4. Materiallardagi barcha sxema, gistogramma, diagramma va boshqa grafik ma'lumotlar tartib bilan raqamlangan holda va .jpg formatida (har bir rasm hajmi ko'pi bilan 500 Kb gacha, skaner qilib ko'chirilmagan bo'lishi, 1 varaq hajmining 50 % idan ortiq joyni egallamagan) bo'lishi lozim. Formulalar "**Formula redaktorida**" yozilgan bo'lishi shart. Rasmlardagi yozuvlar xira va juda kichik hamda matn shriftidan katta bo'lmasligi lozim.

5. Elektron nusxadagi fayl nomi seksiya raqami bilan lotin alifbosida birinchi muallifning ismi familiyasi ko'rinishida bo'lishi kerak (Masalan: 1-seksiyadagi fayl nomi 1-R.Taxirov, agar maqola 2 ta bo'lsa 1-R.Taxirov-1 va 1- R.Taxirov-2 va h.k.).

6. Matn oxirida asosiy foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

7. Maqola kompyuterda **matn terish qoidalariga amal qilgan holda tayyorlanishi, grammatik, orfografik va boshqa xatolardan holi bo'lishi, yuqoridagi sho'balardan biriga mos kelishi hamda ilmiy va ma'no jihatdan tugallangan bo'lishi** lozim.

8. Maqolalar IIITM da (1-bino, 204-xona) har ish kuni soat **15:00 dan 17:00** gacha yoki quyidagi elektron pochta orqali 5 maygacha qabul qilinadi\*.



E-mail: [science-titli@mail.ru](mailto:science-titli@mail.ru).

**Belgilangan muddatdan kechiktirilgan maqolalar qabul qilinmaydi.**

To'lov uchun ma'lumot:

Plastik karta raqami - 8600 5103 8038 2627 (tel.: 94-611-57-52)

***\*yuqorida keltirilgan talablarga mos kelmagan va anjumanda ma'ruza qilinmagan maqolalar chop etilmaydi.***

#### **TASHKILY QO'MITA MANZILI**

100100. Yakkasaroy tumani, Toshkent shahri, Shoxjahon ko'chasi, 5-uy.

tel.: (+998 71) 253-19-59.